

AXBOROT - KUTUBXONA FAOLIYATIDA BOSHQARUV KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI

Mannonov Yusup Otaxonovich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institute Kutubxona - axborot faoliyati fakulteti

Kutubxona-axborot faoliyati kafedrası dotsenti v. b.

Mannonovyusuf@gmail.com. Mob.Tel: 93 562 26 28

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17167328>

Annotatsiya. Maqolada Axborot-kutubxona faoliyati menejmenti konsepsiyasining o'ziga xos xususiyatlari, shakllanishi, bosqichlari, Respublikamizda konsepsiya asosida kutubxonachilik sohasidagi muhim vazifalar va amalga oshirilgan ishlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlari: Axborot-kutubxona, virtual kutubxona, konsepsiya.

ФОРМИРОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННО- БИБЛИОТЕЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ

Аннотация. В статье рассматриваются особенности, становление, этапы развития концепции информационно-библиотечного менеджмента, важные задачи и работы, проводимые в сфере библиотечного дела на основе данной концепции в нашей Республике.

Ключевые слова: Информационная библиотека, концепция, виртуальной библиотеки.

FORMATION OF THE CONCEPT OF MANAGEMENT IN INFORMATION AND LIBRARY ACTIVITIES

Abstract. The article discusses the specific features, formation, stages of the concept of information and library management, important tasks and work carried out in the field of librarianship based on the concept in our Republic.

Keywords: Information and library, virtual library, concept.

Axborot - kutubxona faoliyati menejmenti konsepsiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - butun bir asr davomida Yangi O'zbekiston taraqqiyotning barcha bosqichlarini bosib o'tdi. Axborot - kutubxona faoliyatini boshqarish konsepsiyasi 90-yillarning boshlaridan shakllana boshlab, yillar, butun ijtimoiy-iqtisodiyotni tubdan qayta qurish davrlarida muhim yo'nalish sifatida alohida ajralib turdi. Kutubxonashunoslik zamonaviy jamiyatdagi mavqei tubdan o'zgarib borayotgan kutubxonalar darajasida alohida ahamiyat kasb etdi. Ko'p darajali ierarxik tuzilishdan kelib chiqqan ma'muriy boshqaruv asosida kutubxonalar asta-sekin barcha xususiyatlarga ega bo'ldi, ya'ni barqaror ishlashi uchun zarur bo'lgan mustaqillik va rivojlanish, rahbariyatning o'zi ilgari vakolati bo'lgan qarorlarni qabul qilishi, boshqaruvning yuqori darajalari, mustaqil ravishda maqsadlarni shakllantirish va vazifalarni belgilash uni rivojlantirish strategiyasi va siyosatini ishlab chiqish, izlash, muammolarni hal qilish va boshqalar kutubxonalarni sezirali darajada o'zgarishi yangi makon darajasiga olib chiqdi.

Axborot - kutubxona faoliyatini boshqarishda boshqaruv va o'zini o'zi boshqarish sohasini kengaytirish, yangilarini shakllantirish, boshqaruv funktsiyalari, hajmini oshirish va mazmunini chuqurlashtirish kutubxona rahbariyati tomonidan olib boriladigan ishlarning asosiy bo'g'in ikkilamchi muammoning yechimiga aylanadi. Uning birinchi qismi kutubxonani yuqori

demokratik ijtimoiy muhit sifatida saqlash, axborot resurslariga bo'lgan ehtiyojni inobatga olgan holda uzluksizlikni ta'minlash, ikkinchidan kutubxona tizimining o'ziga xosligi xizmat bozor iqtisodiyoti sharoitida amalga oshiraytganligi bilan ajralib turadi. Kutubxonalarning eng asosiy xususiyati foydalanuvchilarga resurslarni bepul berish, foydalanish imkoniyati yaratilganligidir. Shu o'rinda boshqaruv vazifasi - murakkab ekologiyaga moslashish mexanizmlarini yaratish, zamonaviy voqelikning siyosiy va ijtimoiy hodisalari yechimi bilan bog'lash, qurilgan an'anaviy kutubxona boshqaruv tizimlarini zamonaviy, universal tashkiliy modellar bilan bog'lash kutubxonani boshqarish konsepsiyasining muhim qismi hisoblanadi.

Axborot - kutubxona faoliyatini boshqarish konsepsiyasining shakllanishi davrida boshqaruv paradigmasiga yondashuvlardagi farqlarni aks ettiruvchi uch bosqich nafaqat kutubxona, balki menejment uchun ham falsafiy-uslubiy tushuncha hisoblanadi.

Birinchi bosqichda - kutubxona boshqaruvining paydo bo'lishi, g'oyalar, samarali boshqaruv tizimlari yaratildi. Klassik yondashuvlardan ba'zi yangi, hali paydo bo'layotganlarga o'tish, boshqaruv samaradorligi omillari haqidagi g'oyalar, shakllar va o'zgartirishlar, asoslarni aniqlash, tahlil qilish va keskin tanqid qilishda an'anaviy boshqaruv; an'anaviylik asoslariga muqobillarni ilgari surishdagi boshqaruv; yangi ilmiy standartlarni ilgari surishga urinishlardagi boshqaruv muhim rol o'ynadi.

Kutubxona boshqaruvini shakllantirishning ikkinchi bosqichini belgilash, fan sifatida kutubxona boshqaruvi uchun yangi asoslarni yaratish, boshqaruvga yangicha yondashuvning uslubiy rivojlanishida ifodalangan global boshqaruv negizini tashkil qilish bo'ldi.

Kutubxona boshqaruvini rivojlantirishning uchinchi bosqichi diversifikatsiya bo'lib, bu turli yondashuvlarni, maqsadlarni, funktsiyalari, boshqaruv shakllarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, boshqa mamlakatlar tomonidan allaqachon to'plangan barcha boshqaruv bilimlarini o'zlashtirish uchun eng istiqbollilarini tanlash, mamlakatimiz boshqaruvi yo'nalishlarini tajriba sifatida foydalanishi, strategiyani ishlab chiqish va uzoq muddatli maqsadlarni amalga oshirish, yaratish moslashuvchan tashkiliy tuzilmalar, rivojlangan biznes tizimini qo'llab-quvvatlash va o'zaro aloqalarni mustahkamlashga qaratildi.[2.]

Respublikamizda hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning aniq konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, fuqarolarning axborotdan erkin foydalanishi, milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo'lishi, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirish orqali axborot-kutubxona faoliyatida, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, fondlarni to'ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamlashtirish tizimga bosqichma – bosqich o'tish imkoniyati yaratilmoqda.

Ayniqsa, 2019 yil 7-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi aholisiga Axborot – kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida" gi PQ -4354-sonli qarori axborot-kutubxona Konsepsiyasini aniq belgilab berdi. Qarorga muvofiq 2019 -2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlarini ishlab chiqildi.

Ushbu Konsepsiya fuqarolarning ijtimoiy holati va yashash joyidan qat'i nazar, axborotni erkin olish huquqini o'rnatuvchi, axborot-kutubxona faoliyatini hamda madaniyat sohasidagi siyosatni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq, respublikada axborot-kutubxona faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berdi.

Axborot-kutubxona sohasini samarali rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarurligi belgilandi, ya'ni:

- ✓ axborot va raqamli texnologiyalar rivojlanishi hamda zamonaviy umumjahon tendensiyalarni e'tiborga olgan holda axborot-kutubxona sohasini isloh qilishni jadallashtirish;
- ✓ bugungi kun talablarini hisobga olgan holda axborot-kutubxona muassasalarining rivojlanishi, aholining axborot-kutubxona xizmatlaridan foydalanishining ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash maqsadida me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish;
- ✓ axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, xususan yangi bino va inshootlar qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, ularni zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash;
- ✓ eng yangi, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, korporativ tizimlarni rivojlantirish;
- ✓ axborot-kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, mamlakatdagi xususiy va raqamli (virtual) axborot-kutubxona muassasalari tarmog'ini rivojlantirish;
- ✓ milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida axborot-kutubxona muassasalari xavfsizligini va axborot-kutubxona fondining saqlanishini ta'minlash;
- ✓ jamiyatning axborot madaniyatini, milliy tarix va madaniyatga qiziqishini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va targ'ib qilish;
- ✓ axborot-kutubxona muassasalarini malakali xodimlar bilan ta'minlash.

Belgilangan maqsad va vazifalarni hisobga olgan holda axborot-kutubxona sohasining quyidagi ustuvor masalalarni hal etish belgilandi:

- qonunchilik bazasini aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni rivojlantirish vazifalariga mos ravishda muvofiqlashtirish;
- axborot-kutubxona muassasalarini jamlash mexanizmini yaratish, shu jumladan elektron va boshqa tashuvchilarda nashrlar haqidagi ma'lumotlar tizimini shakllantirish;
- axborot-kutubxona fondlari saqlanishini ta'minlash;
- yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, milliy axborot-kutubxona tarmog'ini yaratish;
- zamonaviy axborot-kutubxona texnologiyalari asosida axborot-kutubxona kadrlarini tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;
- axborot-kutubxona xizmatlarining yangi, shu jumladan, pulli turlarini joriy etish va rivojlantirish;
- axborot-kutubxona muassasalari xodimlari samarali mehnat qilishi va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun munosib sharoitlar yaratish;
- axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- ilmiy-tadqiqot va uslubiy faoliyatni rivojlantirish;

- barcha tizimlar va idoralar axborot-kutubxona muassasalarini boshqarishni muvofiqlashtirish;
- xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va jahon axborot-kutubxona hamjamiyatiga kirish.
- axborot-kutubxona muassasalarini jamoat, tijorat va xususiy nashriyotlar nashrlari, chet elda yashayotgan vatandoshlarimizning asarlari, shuningdek, O'zbekiston haqidagi chet el nashrlari bilan ta'minlash uchun sharoitlar yaratish, respublika hududida yashovchi xalqlar tillaridagi adabiyotlar fondlarini shakllantirish;
- yig'ma elektron kataloglar, to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirish va axborot-kutubxona muassasalarining Internet tarmog'iga ulanishini ta'minlash;
- axborot-kutubxona muassasalari va axborot-kutubxona fondlari xavfsizligini ta'minlash, axborot-kutubxona muassasalari va axborot-kutubxona fondlari xavfsizligi texnologiyasini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy va uslubiy bazani ishlab chiqish;
- foydalanuvchilar uchun avtomatlashtirilgan o'rinlar sonini axborot-kutubxona muassasalari xodimlariga ko'p yillik ish staji uchun qo'shimcha haq to'lashni joriy etish;
- kasbiy unvonlar va davlat mukofotlarini ta'sis etish;
- "Kutubxona a'lochisi" ko'krak nishonini ta'sis etish.[1.]

Ushbu Konsepsiyani amalga oshirishning asosiy vositasi respublikada axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqildi. Konsepsiyani tijorat tashkilotlari, hamkorlar, shu jumladan xorijiy investorlarni jalb qilgan holda sohaga aloqador vazirliklar va idoralar, mahalliy ijro hokimiyati organlari bilan hamkorlikda respublika miqyosida amalga oshirildi. Qarorga muvofiq Konsepsiyani amalga oshirishni muvofiqlashtirish kitob mahsulotlarini nashr qilish va tarqatish tizimini takomillashtirish, shuningdek, axborot-kutubxona faoliyati sohasi bo'yicha maxsus vakolatli davlat organ-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi etib belgilandi.

Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshirilib, birinchi bosqich 2019-2020-yillarga mo'ljallandi. Bunda hududiy axborot-kutubxona muassasalarini kelgusida xalqaro tizimlar bilan integratsiyalash uchun ularni yagona ma'lumotlar bazasiga ulash, milliy umumta'lim elektron kutubxona markazi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish, 2019-2024-yillarda, xususiy va raqamli (virtual) kutubxonalar tarmog'ida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash; ta'mirtalab axborot-kutubxona muassasalarini ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, "Kutubxona a'lochisi" ko'krak nishonini ta'sis qilinib, malakali muttaxassislar taqdirlanmoqda.

Ikkinchi bosqich 2021-2024-yillarga mo'ljallangan bo'lib, bu yillarda "Nashrlarning majburiy nusxasi to'g'risida"gi Qonunni, "Xalqaro nashrlar almashinuvi to'g'risida"gi Konvensiyani ratifikatsiya qilish, MDH va xorijiy davlatlarning yetakchi tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni faollashtirish masalalari hal etildi. Milliy kutubxona qoshida 186 ta tuman (shahar) Axborot-kutubxona markazlari tashkil etish belgilab berildi, Yangi tashkil etilayotgan Axborot-kutubxona markazlarining asosiy vazifalari aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida bosma, multimediya va raqamli tashuvchilarda, shu

jumladan Internet tarmog'da sifatli axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish kabi muhim yo'nalishlar muvoffaqiyatli hal etilmoqda. 2024-yilda yuqorida aytilgan 186 ta Axborot-kutubxona markazlari viloyat tuman, shaharlarida tashkil qilinib, o'z faoliyatlarini to'liq boshlagan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi qoshida Kutubxonachilik ishi bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha bir marotabalik ixtisoslashgan ilmiy kengash O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tashkil qilinib, muvoffaqiyatli ish boshladi.

Manfaatdor vazirliklar, idoralar, tashkilotlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar (shaharlar) hokimliklari bilan hamkorlikda Konsepsiyani ro'yobga chiqarish bo'yicha tadbirlarni belgilab olinib, amalga oshirilmoqda. Konsepsiyada belgilab berilgan tadbirlarni moliyalashtirish masalalari axborot-kutubxona muassasalariga ajratiladigan budget mablag'lari doirasida, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi huzuridagi Axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi, kutubxonalarning xo'jalik faoliyatidan tushgan daromad qismi, homiylar, xorijiy investorlarning mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilmoqda. [1.]

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Konsepsiya - madaniy, ta'lim va axborot infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida muhim ijtimoiy va kommunikativ vazifalarni bajaruvchi axborot-kutubxona muassasalariga mamlakatning iqtisodiy rivojiga munosib hissa qo'shish imkoniyatini yaratadi, axborot-kutubxona ishi sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishga yordam beradi, axborot-kutubxona muassasalari xodimlarining samarali faoliyati, ularning ijtimoiy himoyasi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga ko'maklashadi, barcha tizimlar va idoralarning axborot-kutubxona muassasalarini samarali muvofiqlashtirish va boshqarish, mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7-iyun "O'zbekiston respublikasi aholisiga Axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida" gi PQ -4354-sonli qarori.
2. Сулова И. М. Менеджмент библиотечно-информационной деятельности: учеб. вузов культуры и искусств / И. М. Сулова, В. К. Ключев ; под общ. ред. И. М. Суловой ; МГУКИ. - СПб. : Профессия, 2009. - 600 с.

Internet saytlari:

3. www.Lex.uz